



UDK: 811.512.133'27:070811.111'27:070

Dildora KOMILOVA,
Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: dkomilova@gmail.com

Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti, PhD Achilova Risolat taqrizi asosida

NUTQ ODOBIDA DO'STLIK KONSEPTINING BERILISHI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Ingliz va o'zbek tillarida nutq o'qobida do'stlikni jonlantirish va til sohibiga xos bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishligi do'stlikning qadr-qiymati yanada oshiradi. Qadriyatlar aspektida ko'rib chiqilayotgan konseptning majmuasi olamning qadriyatli manzarasini hosil qiladi.

Kalit so'zlar: Nutq odobi, qadriyatlar, kishilar xulqi, mentallik ideologiyasi, syujet, lingvistik ma'lumotlar, iboralar.

PRESENTATION OF THE CONCEPT OF FRIENDSHIP IN SPEECH ETHICS

Annotation

In this article, the manner of speech in English and Uzbek is to revive the friendship and to have the characteristics characteristic of the native speaker, which increases the value of friendship even more. The complex of the concept considered in the aspect of values forms a valuable view of the world.

Key words: *Speech etiquette, values, human behavior, ideology of mentality, plot, linguistic information, phrases.*

ПРЕДСТАВЛЕНИЕ КОНЦЕПЦИИ ДРУЖБЫ В РЕЧЕВОЙ ЭТИКЕ

Аннотация

В данной статье манера речи на английском и узбекском языках возрождать дружбу и иметь черты, свойственные носителю языка, что еще больше повышает ценность дружбы. Комплекс концепта, рассматриваемый в аспекте ценностей, формирует ценностный взгляд на мир.

Ключевые слова: Речевой этикет, ценности, поведение человека, идеология менталитета, сюжет, языковая информация, фразы.

Kirish. Nutq o'qobida konseptning qadriyatli tomoni shundaki, bunda psixologik jarayonning individ uchun xam, jamoa uchun ham muhim ekanligi ta'kidlanadi. Konseptni madaniy ma'noli qilib ajratish uchun psixologik jarayon hal qiluvchidir. Bu murakkab mental tuzilmada ushbu madaniyat uchun muhim bo'lgan fikrlar qadriyatli dominantlar orqali ajralib turadi, ularning majmui tilda qo'llab-quvvatlanadigan va saqlanib qolgan madaniyatning aniq turini hosil qiladi. Kishilar xulqini aniqlaydigan qadriyatlar, olam lisoniy manzarasining muhim qismini tashkil etadi.

Aksiologiyada qadriyatlarining ko'plab tasnifi mavjud. Qadriyatlar haqidagi til informatsiyasi xalqning olamni anglashdagi xosliklari haqida, ona tiliga xos dunyoqarash to'g'risida tushuncha beradi, uning o'zida intellektual, ma'naviy va milliy xarakterning kuchli sifatleri namoyon bo'lishidan dalolat beradi. Mentallik ideologiyasi bir xil tushuncha emas, u fikrning o'ylangan sistemasi bilan ish ko'radi. Ko'p hollarda u mantiqan aniqlanmagan bo'ladi.

V.A.Maslova aytganidek, til madaniyatni yaratish, rivojlantirish, saqlash va translyatsiya qilish quroli bo'lib, milliy til etnos madaniyatining "mahsuli" sifatida namoyon bo'ladi. Bu ijtimoiy tafakkurning shunday darajasiki, unda aks etgan fikr xis-tuyg'udan, turli urf-odat va tafakkur usullaridan holi emas. Kulturologik nuqtayi nazardan ma'lum etnosning aksiologik dominant pozitsiyasidan turib leksik (hattoki grammatik) materialni o'rganish mumkin. Bunday yondashuv til birliklarining tasviriy tasnifini hamda aniq etnosga u yoki bu etnos tarkibidagi aniq sotsial qatlam vakiliga xos bo'lgan axloqning asosiy turlari ajralib chiqishini nazarda tutadi. Axloq turlari madaniy antropologik tizim va me'yorlar yordamida aniqlanadi. Masalan, "bolalar ota-onalar", "er-xotin", "mexmon-mezbon", "inson-hayvon", "do'st-do'st", "raqib-raqib" va hokazo munosabatlar. Maqbul normalar tafakkurning asosiy va qo'shimcha ko'rinishlariga qarab shakllanadi. Axloqning turlari tillarning paremiologik boyligi, folklori, badiiy adabiyotda syujet, etnografik va kulturologik yozuvlarning tahlili asosida

aniqlanadi. Masalan, "bolalar ota-onalar", "er-xotin", "mexmon-mezbon", "inson-hayvon", "do'st-do'st", "raqib-raqib" va hokazo munosabatlar. Maqbul normalar tafakkurning asosiy va qo'shimcha ko'rinishlariga qarab shakllanadi. Axloqning turlari tillarning paremiologik boyligi, folklori, badiiy adabiyotda syujet, etnografik va kulturologik yozuvlarning tahlili asosida aniqlanadi. Lingvistik ma'lumotlar - so'z ma'nosi, ibora, tilning kategoriyalari taxlili gipoteza sifatida qabul qilinadigan kulturologik sxemalarni aniqlash, qator hollarda qayta ko'rib chiqish imkoniyatini beradi.

Adabiyotlar sharhi. Maqolamizni yozishda G'.Salomov, F.de Sossyur, Q.Musayev, A.Maslova, N.Qambarov, X.Xamidovb E.Ochilov, S.Fidokor, D.O'rayeva, J.Bo'ronov, M.Baqoyevlarning tarjima nazariyasiga oid ilmiy ishlaridan manba sifatida foydalandik. Bunda misol tariqasida qiyoslash uchun ingliz va o'zbek tilida qo'llanilgan quyidagi misollarni keltirish mumkin:

The best of friends must part Eng yaxshi do'stlar ham ajrashmoqligi muqarrar;

A friend to everybody is a friend to nobody - Hammaga do'st bo'lgan, hech kimga do'st bo'lmaydi;

Friendship is not to be bought at a fair - Dustlikni bozordan sotib olib bo'lmaydi;

Better an open enemy than a false friend - Hiylagar do'stdan, haqiqiy dushman afzal;

Greater love hath no man than this, that a man lay down his life for his friends - Bir-birlari uchun kurbon bo'lishdan ko'proq muhabbat bo'lmaydi kabilar. Tasviriy vositalarni tushunish uzoq vaqtdan beri akademik tadqiqotlar mavzusi bo'lib kelgan, ayniqsa ularning tildan foydalanishdagi kognitiv va kommunikativ roli bilan bog'liq. Lakoff va Jongsong ko'ra, metaforalar markaziy stilistik vositalar sifatida inson tafakkuri va tilini sezilarli darajada shakllantiradi, bir konsepsiyani boshqasining shartlari orqali tuzadi[1]. Ular metaforalarni strukturaviy, orientatsion va ontologik turlarga ajratdilar, ayniqsa, personifikatsiyani raqamli

aloqada keng qo'llaniladigan yorqin ontologik metafora turi sifatida qayd etdilar.

Ta'kidlash joizki, dunyo tillarida maqol shakllarining ko'p sonli qatlamida inson faoliyati va ichki dunyosi bilan bog'liq turli sohalar aks etgan. Bular orasida, xususan, do'stlik haqidagi paremiyalar muhim o'rin egallaydi. Do'stlik haqidagi iboralar orqali ifodalangan "quyma" fikrlar ham umuminsoniy xarakterga ega. Boshqacha kilib aytganda, ulardagi tushuncha bir xil bo'lganligi tufayli barcha xalqlar tilida umumiylik kasb etadi. Lekin, ularning tashqi tomoni, ya'ni ifoda birliklari (paremiyaning tashqi ko'rinishi yoki ifodasi, ya'ni tovushlar, so'zlar va grammatik vositalar kabilar) bilan farqlanadi. Demak, nutq odobiga oid paremiyalarning ichki ma'nolari, ya'ni ulardan anglashiladigan fikrlar, (yuqorida keltirilgan misollardan xam ko'rinadiki) ko'pincha, ingliz va o'zbek tillari uchun umumiy xarakterga egaligini to'liq tasdiqlaydi.

Nutq odobiga oid paremiyalarning yangi variantlarining safi asrlar davomida kengayib boradi. Lekin ular o'zak paremiyalarning umumiy mazmunidan keskin farqlanmaydi. Masalan, Dust - do'stingning oynasi - Do'st dillar bir-biriga ko'zga bo'ladi; Do'stingni ayt, sening kimligingni aytib beraman - Odamning qandayligi do'stlaridan ma'lum - Do'stni izlama, do'sting do'stini izla; - Do'sting do'st bo'lsin, hisobing durust bo'lsin kabilar. Bu misollarda birinchisini o'zak paremiya desak, keyingilarini uning nisbiy neytral variantlari sifatida qarash mumkin. Bunday xususiyatlar qayd etilgan lug'atlarda kuzatiladi.

Ingliz va o'zbek tili tarjimalarida nutq odobining ba'zilarida birinchi o'ringa do'stlik konsepti semantikasi qarindoshlik qadriyatiga tenglashtiriladi. Masalan: Yaxshi do'st yomon qarindoshdan afzal, Yaxshi do'st yuzta qarindoshdan yaxshi - To'g'ri so'z do'stlar - qarindoshdan afzal - Kimki tugri suzli do'st bo'lsa, u qadrdon oga Ota - xazina (ustoz), aka-suyanchiq, do'st esa har ikkalasi - Tug'ri so'zli do'st - tug'ishgan akaday kabilar. Bunday paremiyalar mazmuni ingliz tilida ham mavjud:

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda sifat va miqdoriy usullarni birlashtirgan aralash metodik yondashuv qo'llaniladi. Lakoff va Jonsonning kontseptual metafora nazariyasiga[1] rioya qilgan holda tavsiflovchi va analitik usullarni birlashtirgan korpus asosidagi tahlil qo'llanildi va Dansigiyer va Svitser[2] tomonidan kiritilgan analitik asoslar bilan to'ldirildi.

Better lose a jest than a friend -It is good to have some friends both in heaven and hell - The two women had no friends in common - Friends through fortune become enemies through mishap Between friends all things are cottoy kabilar. Ushbu misollarda ham do'stlik konsepti semantikasidagi qarindoshlik qadriyatiga tenglashtirilgan xususiyatlar mustarakdir.

O'zbek xalq maqollarining ba'zilarida esa semantik belgi do'stlikni boyluk, pul, mol-dunyodan afzalligi to'g'risidagi mental ma'nolar kabi tomonga yo'naltiriladi: Davlating-do'sting; Do'stlikni bozordan sotib olib bo'lmaydi; Dust hisobi dilida; Do'sting boyliging; Do'stlik barcha boyligidan afzal; Do'stlik oltinga sotilmas kabilar. Ba'zi maqollarda do'stlikdagi semantik belgilarning har ikki tilda hamohangligi seziladi. Ingliz tilida ham bu ma'nolar, ya'ni mol-dunyo bilan bog'liq do'stlik paremiyalari mavjud: A friend in court is better than a penny in purse:

Tahlil va natijalar. A friend in the market is better than money in the chest; A friendship is not to be bought at a fair; No friendship is strong that owes its rise to a pot; When good cheer is lacking, friend will be packing: Poor folk's friends soon misken them: Fresh fish and poor friends become soon ill savoured; In time of prosperity friends will be plenty: Rich folk have many friends: A false friend and a shadow attend only while the sun shines; While the pot boils friendship blooms kabilar. Ushbu misollarda ko'chma ma'no bo'rttirish, o'xshatish elementlarining birikib kelishidan anglashiladi. Keyingi ikki misolda noahillikning ko'chma ma'nosi kinoya orqali ifodalangan. Ingliz tilida esa bunday o'z va ko'chma stilistik ma'nolariga ega paremiyalarni biroz kamroq kuzatdik. Nutq odobida do'stlik paremiyalari o'z ma'nosida qo'llanganda oddiy gaplardek erkin birikmalardan farqlanmaydi. Shuningdek, bu iboralarda ham ko'chma, ham o'zining odatdagi to'g'ri ma'nolari anglashilsa, ko'chma ma'nosi shakllarini gap bo'laklariga ajratib bo'lmaydi

Masalan: Dustim deb siringni aytma, Do'stingning ham do'sti bor; Do'stlik sinovlarda chiniqadi; Dustlarning sonini sanama, sifatini sana; Dustning eskisi yaxshi, kiyimning - yangisi; Dust oldida bolangni koyima; Dust yiglatur, dushman kuldirur; Do'stlik ipini uzma, ulasang tuguni qolar.

Ingliz tilida: Before you choose a friyend eat a bushel of salt with him; Be slow in choosing a friyend and slower in changing him; Old friyend and old wine are best; A friyend is never known till a man have neyed kabilar. Qayd etilgan misollar mazmunidan seziladiki, bu borada ham ikki til bir biri bilan yaqindir.

"Do'stlik rishtalari"[7] iborasi ikki xalq o'rtasidagi diplomatik va madaniy aloqalarni, go'yo ularni bir-biriga bog'lovchi jismoniy iplardek ifodalovchi metaforadir. Bu ularning munosabatlarining hissiy va ramziy ma'nosini kuchaytiradi.

Keng ma'noda do'stlik tushunchasi nafaqat shaxslararo, balki sotsial munosabatlar sohasida (xalklar do'stligi, davlatlar o'rtasida do'stlik aloqalarida) ham muhim qadrlanadi. Do'stlik o'zbek lisoniy tafakkuri sohibi uchun muqaddas narsa sifatida tanaxvur qilinadi va qadrlanadi. Masalan, Hajr iztiroblari - taxxolik, soginch qiynoqlarini kechirayotgan oshiq ko'zlariga yorug va keng dunyo tor zimistonga aylanganda yaqin do'stlar, munislar uni yolgizlatib kuymaydilar, samimiy mehribonliklar ko'rsatib, ko'nglini olishga intiladilar. Sadoqatli do'stga hech vaqt ortiqcha xizmat qilib yurish zarur emas. Bir hakimdan so'radilar: "Qanday safar uzoq safar?" javob berdi: "Sadoqatli do'stni qidirish safari"; Qidirgan narsani topish mumkindir, biroq sodiq do'stni topmoq muammo.

Demak, o'zbek matnlarida sodiqlik va sadoqat do'stlikning oliy xususiyati deb qadrlanadi. O'zbek badiiy matnlaridagi bunday qadriyatlar ingliz badiiy matnida deyarli kuzatilmaydi. Lekin qisman bo'lsa-da, ingliz tili matnlarida do'stlik tuyg'usiga sadoqatlilik, ya'ni bu muqaddas xususiyatga ega bo'lgan do'stlikni hamisha eslaydilar, hurmat qilinadi, qadrlanadi, uning sharafiga va xotirasiga bag'ishlab yaxshi amallar qiladilar / do smth for friendship's sake. Ingliz tili lug'atida uchraydigan qo'yidagi so'z birikmalari holy / sacred friendship, to swear eternal friendship esa bundan mustasno.

Lug'atlarda yozilishicha u yoki bu holatda ham do'stlik shunday qadriyatki, uni asraydilar (ya'ni value), uni saqlaydilar, avaylaydilar, kadrlaydilar, yo'qotishdan, undan ajralishdan qo'rqadilar (ya'ni value, cherish, afraid to lose it), agar yo'qotsalar, achchiq qayg'uradilar va bu yo'qotishdan ko'pincha boshqalarni ayblaydilar. Bu qimmatbaho boylukni hamma joydan izlaydilar (ya'ni look for, seek), arar uni birovga taklif etsalar (ya'ni offer, exland), buni bemalol topsa bo'ladi (ya'ni find). Ba'zan do'stlikka kurashib erishadilar (ya'ni win). Har qanday qimmatbaho narsada bo'lgani kabi do'stlikning ham qadri bor, lekin uni amalda aniklab bulmaydi: U do'st o'zining sodiqligi bilan bahosini oshirdi, / butun dunyo oldida uning kadr-qimmatini rad etmaslik uchun to set a valuation on friendship. Oldindan aytish mumkinki, do'stlik qimmatbaho insoniy tuygu, xakikiy, chin (true), lekin, u qalbaki (false) ham bo'lishi mumkin. Shubhasiz, xar ikkala holatda ham subyekt qandaydir qimmatbaho hisoblanadi. Ingliz lisoniy tafakkuri uchun esa uning kelib chiqishini ta'kidlab o'tish lozim, vaqt o'tishi bilan do'stlikdagi qadriyat kuchayishi yakkolroq seziladi: to make/foIngliz va o'zbek tillarida nutq odobida do'stlikni jonlantirish hollari tez-tez uchrab turadi. Bunda subyekt - til sohibiga xos bo'lgan xususiyatlarga ega bo'ladi va do'stlikning qadr-qiymati yanada oshadi. Leksikografik tahlil, shuningdek, badiiy matnlar tahlili ko'rsatadiki, do'stlik tug'ilishi, o'sishi, xizmat qilishi, yashashi va nihoyat, so'nishi ham mumkin. Masalan, What can I do for my friend? No man ever can have ben more desirous in his heart to serve a friend, than I am to serve mine, If I knew how; That at least is true, said Mr Lorry/ say no more now. It may be that I shall yet stand your friend, If you deserve it. O'zbek tilida ham shunday ma'nolar mavjud: Quyosh havoni isitsa, do'stlik qalbn isitadi; Daraxtni tomiri, odamni do'sti saqlaydi. Ushbu paremiyalarning mazmunidan seziladiki, birinchi misolda "issig'i yo'q quyosh bo'lmaganidek, do'stliksiz qalb isimasligi", ikkinchisida esa "tomirisiz daraxt bo'lmaganidek, inson ham do'stsiz bo'lmaydi" degan verbal mazmun anglashiladi.

Umuman, haqiqiy do'stlik subyekti til sohiblarining verballashgan yaxshilik qilish sifatleri bilan tavsiflanadi. Bu sifatlar dustni sotmaslik, do'stga munosib, samimiy, matonatli, sadoqatli, sinalgan sodiqlik va hokazo ma'nolarining ifodalanishida ko'rinadi. Bu fikr yuqorida qayd etilgan misollarda o'z aksini topgan. Shu kabi yana kuyidagi misollarni keltirish mumkin: Do'stim qolsin desang-mangu do'st, do'stdan ham yaxshiroq bormi hech inson?

Bunday xususiyatlar ingliz tilida o'ziga xos ko'rinishlarga ega. Chunonchi, gazab va ehtirosli damda ham do'stlik saklanishi va buzilmasligini ingliz badiiy adabiyotida ifodalaydigan to'g'ridan to'g'ri qarama-qarshi qo'yiladigan misollar uchraydi: There's the silence of a great hatred, And the silence of a great love, And the silence of a deep peace of mind, And the silence of an embittered friendship. Ushbu misolda yomon ko'rishda, qattiq sevishta, chukur ehtirosli damlarda bo'lganidek do'stlikning qahrli paytlarida ham sukunat hukmron bo'ladi degan mental ma'no ifodalangan.

Xulosa. Nutq odobida abstraksiyaning oliy darajadagi universal lingvomental tuzilmasi hisoblangan "do'stlik" konsepti o'z yadroviy tuzilmasida ingliz va o'zbek tili badiiy matnlarida qisman o'xshash, asosan antropomorf chizmalarga ega bo'ladi. Lekin ularda periferiya farqlarning ham borligi seziladi. Bu farqlar u yoki bu belgining bor yo'qligiga, ularning sifat va mikdor ko'rsatkichlariga taalluqlidir. Asosiy farq qiluvchi semantik belgi - muqaddaslik, qadriyatlilikdir, bu narsa ko'proq o'zbek milliy tafakkuriga xosdir.

Do'stlik konseptida metafora orqali dunyo haqidagi (inson faoliyatidagi) tafakkurning shunday usuli aks etadiki, u avvalgi bilimlarni yangilari bilan to'ldirib boradi. Aniqrog'i, ma'lum bir so'zning yoki tushunchaning dastlabki ma'nosi asosida uning ko'p sonli assotsiatsiyalari bilan yangi ma'noli konsept shakllantiriladi. Metaforik ifoda yana shunisi bilan qiziqki, yangi bilimlarni yarata turib, u turli mavjudliklarni o'ldiraydi, uni inson orqali yuzaga chiqaradi. Bilim va tasavvurlarni inson darajasi bilan bog'laydi. Madaniy milliy qadriyatlar bilan tenglashtiriladi; Inson bu yerda barcha narsalarning o'ldiruvchi sanaladi. Demak, do'stlik- friendship leksemalari tayanch konsept prizmaga aylanadi, u orqali inson dunyoni ko'radi. Good thoughts his only friends; Season of mists and mellow fruitfulness, / Close bosom-friend of the maturing Sun. The Soul unto itself / Is an imperial friend / Or the most agonizing Spy-/ An Enemy could send. Do'stlik g'oyasida do'stlashishda metindek mustahkam poydevor bilan qiyoslash kabi mental ma'nolar ham mavjud: All love that has not friendship for its base; Is like a mansion built upon the sand. Bunday yo'l bilan ham do'stlikdagi qadriyatli inson tuyg'usi yanada mustahkamlangan. Bundan tashqari bu yerda do'stlikni jismoniy parametrlar bilan yonma-yon material substansiya yo'naltiradigan qator metaforalarning uchrashini ta'kidlash mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Bo'ronov J., Botayev Sh., Irisqulov M., Rahmonberdiyev K. English - Uzbek dictionary. -T.: G'afur G'ulom Ўзбек тилининг изохли луғати. 5 жилдди. 1-жилд, Б.356.
2. Бакоева М. Инглиз ва Америка адабиётидан ўзбек тилига шеърӣ таржима ва киёсий шеършунослик муаммолари. - Т.: Фан, 2015. - Б. 142. 94
3. Galperin I.R. Stilistika. - Moskva: Oliy maktab, 1977.- P. 212.
4. Саримсоков Б. Ўзбек маросни фольклори. Т.: Фан, 1986. – Б. 29.
5. Ўраева Д. Ўзбек мотам маросими фольклори. - Т.: Фан, 2004. - Б. 45.
6. Komilova D. GIVING THE LEXICON OF EMOTIONAL EVALUATION IN LITERARY TRANSLATION //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2. – №. Special Issue 29. – С. 34-39.
7. Фафорова Назокат, Тешабоева Зиёдахон Қодировна She'riy matn tarjimasining o'ziga xos xususiyatlari. Uzbekistan Language and culture Volume 3 (4). Tashkent. – 2023. B.138-150
8. Комилова, Дилдора Шавкатовна БАДИЙ ТАРЖИМАДА ХИССИЙ БАХОЛАШ ЛЕКСИКАСИНING БЕРИЛИШИ (ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИ МИСОЛИДА) // ORIENSS. 2022. №10-2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/badiiy-tarzhimada-issiy-ba-olash-leksikasining-berilishi-ingliz-va-zbek-tillari-misolida>.
9. Kasimova, Rano Rakhmatulloevna, and Ziyadullayeva, Aziza Akmalovna, (2020) "GRAMMATICAL TRANSFORMATIONS IN ENGLISH TRANSLATION OF UZBEK STORIES," Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology: Vol. 2: Iss. 8, Article 37. Available at: <https://namdu.researchcommons.org/journal/vol2/iss8/37>.
10. <https://www.adsoftheworld.com/campaigns/slo-mo> . [Accessed: March 16, 2025].
11. <https://www.adsoftheworld.com/campaigns/flamin-hot> . [Accessed: March 16, 2025].